

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
ISTANBUL TIJORAT UNIVERSITETI
QOZON FEDERAL UNIVERSITETI
BALIKESIR UNIVERSITETI**



**“SIFATLI TA’LIM VA INTERDISIPLINAR YONDASHUV:
MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA HAMKORLIK”**

xalqaro ilmiy amaliy anjuman

MATERIALLARI

25-26-may

GULISTON-2023

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti
Istanbul tijorat universiteti
Qozon federal universiteti
Balikesir universiteti

“Sifatli ta'lim va interdisiplinar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik”

xalqaro ilmiy – amaliy anjuman

materiallari

25-26-may

va bemorga salbiy oilaviy “meros”dan xalos bo‘lishga, oila o‘tmishi ssenariysini takrorlamasdan, o‘z hayoti bilan yashashga yordam berish sanaladi [2].

Bugungi kunda inson DNK sini o‘rganadigan genetik geneologiya mavjud. Genetik geneologiyada kishilar o‘rtasidagi qarindoshlikni aniqlash uchun an’anaviy geneologik usullar bilan bir qatorda DNK testlardan foydalaniladi. XXI asrda DNK testlarning arzonlashuvi bilan oilaviy tarixlarni yaratishda genetik usullardan foydalanish keng tarqaldi. 2019 yilga qadar 30 mln atrofidagi inson o‘z nasl-nasab shajarasini aniqlash uchun DNK testlar o‘tkazishgan [3].

An’anaviy geneologik tadqiqotlarning mavaffaqiyati hujjatlarning saqlanganligi va ularning mavjudligiga bog‘liq. Biroq har bir insonning o‘zida DNK kabi “biologik hujjat” mavjudki, uning yo‘qolishi mumkin emas. Genetik geneologiya usullari DNK ning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ota tomondan (Y-xromosoma) va ona tomondan (mtDNK) uzatiladigan qismlariga yetib borish, shu bilan birga DNK ning boshqa qismlariga oid taxminlar qilish imkonini beradi. Masalan, Y-xromosomaning DNK testi ikkita erkakka ota tomondan umumiy ajdodlari bor yoki yo‘qligini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, genetik ma’lumotlardan jinoiy ishlarda gumonlanuvchilarni yoki jabrlanuvchilarni aniqlashda foydalaniladigan sud geneologiyasi (Forensic genealogy yoki IGG – Investigative genetic genealogy) usuli rivojlanmoqda. 2019 yilga qadar ushbu usulda qotillik hamda jinsiy zo‘ravonlikka oid 40 dan ortiq jinoyatlar ochilgan [4]. Sud geneologiyasining imkoniyatlari GEDMatch ochiq kodli ma’lumotlar bazasidan [5] (yoki pulli AncestryDNA va 23andMe) foydalanishga asoslangan. Shuningdek, GEDMatch orqali odamlar qarindoshlarini aniqlash uchun o‘z geneologiyalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanuvchi kompaniyalardan yuklab olishi mumkin. GEDmatch DNK test natijalarini dunyo bo‘ylab eng ko‘p odamlar bilan solishtirish uchun ilovalarni taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, geneologiya turli sohalarga oid fanlar bilan aloqador. Geneologik tadqiqotlar fanlararo aloqalarni amalga oshirish orqali sotsiologiya, madaniyatshunoslik, tarixiy o‘lkashunoslik, geografiya kabi ko‘plab sohalarni ma’lumotlar bilan boyitishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьева Г.А., Шорин П.А., Кобрин В.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. Под ред. Г.А. Леонтьевой. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2003. – 368 с.
2. Шутценбергер А.А. Психогенеалогия. Как излечить семейные раны и обрести себя. – М.: Изд-во Института Психотерапии, 2010. – 224 с.
3. Farr C. Consumer DNA testing has hit a lull — here’s how it could capture the next wave of users // <https://www.cnn.com/2019/08/25/dna-tests-from-companies-like-23andme-ancestry-see-sales-slowdown.html>
4. Heather M Genealogy Sites Have Helped Identify Suspects. Now They've Helped Convict One // The New York Times. 2019.1.07. (<https://www.nytimes.com/2019/07/01/us/dna-genetic-genealogy-trial.html>)
5. <https://www.gedmatch.com/>
6. Кобрин В.Б. Опричина. Генеалогия. Антропонимика. – М.: Российский государственный гуманитарный университет, 2008. – 369 с.
7. Саидбобоев З., Чориев Ш. Махсус тарихий фанлар асослари. – Тошкент: Университет, 2017.

TARIXIY TADQIQOTLARD A FANLARARO YONDASHUV: VIZUAL ATROPOLOGIYA (OILAVIY FOTOSURATLAR MISOLIDA)

Qodirova Lutfiya Batirovna
PhD, dotsent

Annotatsiya: Maqolada tarixiy tadqiqotlarda fanlararo yondashuvining ahamiyati vizual antropologiya misolida tahlil qilingan. Unda vizual antropologiyada muhim manba sanalgan oilaviy fotosuratlaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarixiy tadqiqotlar, antropologiya, vizual antropologiya, vizual manbalar, fotosuratlar, oilaviy fotosuratlar.

Abstract: The article analyzes the importance of an interdisciplinary approach in historical research using the example of visual anthropology. It talks about the specific aspects of using family photos, which are considered an important resource in visual anthropology.

Key words: historical research, anthropology, visual anthropology, visual sources, photographs, family photographs.

Tarix fani taraqqiyotining zamonaviy bosqichdagi o'ziga xos xususiyatlari ta'limning mazmuni, tuzilishi va shakllarida sezilarli o'zgarishlar taklif etmoqda. Jumladan, zamonaviy tarix ta'limi turli fanlarning integratsiyasini talab etadi, zero, muammoni bir necha fanlarning metodlari asosida o'rganish tadqiqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Fanlararo tadqiqotlarning metodologik asosini ijtimoiy-gumanitar fanlar obyektining umumiyliigi (predmetidan farqli ravishda), ya'ni inson hayoti ekanligi tashkil etadi [1, 170-b.].

Shu sababdan tarixiy bilish boshqa ijtimoiy fanlar bilan chambarchas aloqada rivojlanib bordi hamda bu aloqalaraning natijasi o'laroq tarixiy va ijtimoiy psixologiya, tarixiy va ijtimoiy antropologiya kabi fanlar vujudga keldi.

Vizual antropologiya ijtimoiy antropologiyaning bir qismi bo'lib, etnografik fotosuratlar, kino va ommaviy axborot vositalarini o'rganish bilan bog'liq. Vizual antropologiya – bu ijtimoiy-falsafiy va madaniy antropologik tadqiqotlar asosida paydo bo'lgan zamonaviy fanlararo bilim sohasi bo'lib, u tasviriy san'at, ijtimoiy bilish va axborot texnologiyalarini sintez qiladi [2, 84-b.].

Vizual antropologiya madaniyatning ma'naviy, kundalik turmush, tabiiy va boshqa qirralarini qayd etadi va o'rganadi. Vizual antropologiyaning asosiy vazifasi kam o'rganilgan va ko'p hollarda yo'qolib borayotgan madaniyatlarning haqiqiy holatini aks ettirish, uning qonuniyatlarini aniqlashdan iborat [3, 21-b.].

Vizual antropologiya madaniyatni namoyish etishning barcha vizual vositalarini, jumladan rasm, fotosurat, muzey ekspozitsiyasi, teatr, ommaviy axborot vositalarini o'z ichiga oladi. Shu jihatdan fotosuratlar, ayniqsa oilaviy fotosuratlar muhim ijtimoiy bilimlarning manbai sifatida mustaqil ilmiy qiymatga ega [4]. Vizual antropologiyaning muhim manbalaridan biri bo'lgan fotosuratlar o'tmish haqidagi xotirani saqlash va uzatishning universal va hammabop vositasi bo'lib, yozma matndan farqli ravishda ijtimoiy va madaniy to'siqlardan xolidir.

Eski fotosuratlarini deyarli hamma joyda uchratish mumkin: oilaviy va maktab albomlarida, davlat arxivlarida, kitoblari va matbuot sahifalarida. Fotosuratlar bizga unda aks ettirilgan qahramonlar va ularni o'rab turgan vaziyat haqida ko'p narsalarni so'zlab bera oladi. Ular boshqa manbalardan olingan axborotni yaxshiroq tushunish imkonini beradi va shu tariqa ular tarixiy izlanishlarni osonlashtiradi hamda ularni to'ldiradi. Xususan, oilaviy fotosuratlar turli ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qiladi: o'tmishdagi kundalik amaliyotlar, xususiy va ommaviy muhit, oilaning tarkibi va ijtimoiy ahvoli, oila a'zolarining mavqei, ular o'rtasidagi munosabatlar, turli avlodlarning odatlari hamda qadriyatlari va h.k. Turli avlod vakillari oilaviy fotosuratlarini yaratish, tanlash va albomga joylashtirish orqali, aslida, o'z oilalarining hayotini hujjatlashtiradilar va uning vizual tarixini yozadilar.

Fotosuratlar kundalik turmush haqida ma'lumot beradi, unga qarab insonlarning u yoki bu ijtimoiy qatlamga mansubligini aniqlash mumkin. Misol tariqasida fotosuratlard tasvirlangan insonlarning liboslarini olib qaraylik. Libosga va kiyinish uslubiga munosabat kundalik turmushning muhim detallaridan biri bo'lib, o'tmishda ushbu xususiyat insonning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligini aks ettirgan.

Ko'pchilik katta va o'rta avlod vakillari nafaqat o'z oila a'zolari, balki uzoq qarindoshlari haqida ham so'zlab bera oladilar. Oilaviy fotosuratlarda aks etgan hodisalar esa tarixiy ahamiyatga molik hodisalarni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Chunki ijtimoiy miqyosdagi voqealar insonlar taqdiriga ta'sir ko'rsatadi va individul xotira tarixiy xotiraning bir qismiga aylanadi.

Oilaviy fotosuratlardan tarjimai holni yaratish usuli sifatida foydalanish mumkin. Odatda fotosuratlarda ko'pchiligimizga tanish bo'lgan oilaviy hayot bosqichlari aks etadi: yangi tug'ilgan chaqaloq, bog'cha, birinchi sinf, maktabni bitirish, harbiy xizmat, talabalik davri, mehnat faoliyati, oila qurish, sayohatlar. Ushbu hodisalarni aks ettiruvchi fotosuratlar qog'ozda va uni tomosha qilgan insonlar ongida tarjimai holni yaratadigan obrazlar majmuidir.

Shu bilan birgalikda, fotosuratlar inson yashab o'tgan haqiqiy hayotiy vaziyatni aks ettirmasligi, hatto kundalik hayotda ular (ongsiz va zararsiz holatda) haqiqatni boshqacha talqin qilish yoki uni qayta yaratish uchun qo'llanilishi mumkinligini ham hisobga olish lozim. Aytaylik, fotoalbom oila hayotining barcha tomonlarini emas, uning ayrim bosqichlarini aks ettiradi, fotosuratlarni tanlash esa ma'lum bir marosimga muvofiq amalga oshiriladi. Ko'p hollarda fotosuratlar qandaydir bayram yoki oilaviy marosim tufayli paydo bo'ladi. Shu sababdan, tarixiy izlanishlarda fotosuratlardan foydalanishning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud: ularda ma'lum maqsadda tanlab olingan hodisalar aks etadi, ularda aks etgan insonlarning holati ham alohida tayyorgarlik natijasidir. Oilaviy fotosuratlarda aks etgan voqealar tarixiy davr, texnologik taraqqiyot, hududiy va madaniy xususiyatlar bilan ham bog'liq.

Fotosuratlar bilan ishlaganda avvalo u yaratilgan hudud va sanani aniqlash lozim. Shu bilan birgalikda, suratga yoki uning orqa qismiga tushirilgan yozuvlar ham muhim ahamiyatga ega, bu nafaqat fotosurat yaratilgan sanani, balkim uning saqlab kelinish sababini aniqlash imkonini beradi. Chunki suratni saqlab qo'yar ekanmiz, biz o'zimiz yoki boshqa insonlar haqidagi vizual xotirani saqlaymiz.

Fotosuratlarga tarixiy manba sifatida haqqoniy yondashishning o'zi kamlik qiladi, suratda muhrlangan tashqi voqelikni, unda aks etgan murakkab va ko'p qatlamli mohiyatni anglash uchun ularga tanqidiy yondashish kerak. Fotosuratda aks etgan tarixiy axborotni to'laligicha o'qiy olish uchun ularni tahlil qilishda vizual sotsiologiyada qo'llaniladigan to'rt xil yondashuvdan foydalanish mumkin: germenevtik, semiotik, strukturali va diskurs tahlil [5, 77-b.].

Germenevtik yondashuvda tanlangan fotosuratning mualliflik omili tahlil qilinadi. Bunda quyidagi savollarga javob izlash lozim: surat kim tomonidan va nima maqsadda yaratilgan, suratga tushirilayotganda obyekt haqidagi qanday bilimlardan foydalanilgan, muallif suratga olishda qanday ijtimoiy nuqtai-nazardan (sinfiy, irqiy, etnik) yondashgan va h.k. Shu bilan birga, obraz germenevtikasi nafaqat muallifga, balki suratda aks ettirilgan insonlarga ham oid.

Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida tushirilgan fotosuratlar o'z maqsad va qarashlariga ega bo'lgan xorijlik va rus suratlashlari tomonidan olingan bo'lib, ular mustamlakachilik qarashini o'zida aks ettirgan. Birinchidan, ularda Edvard Said yozganidek, oriyentalizm mavjud edi. Ularda "bizniki" va "ularniki" orasiga aniq chiziqli tortilib, O'rta Osiyo jamiyatining begonaligi va o'zgachaligiga alohida urg'u berilgan. Ikkinchi tomondan, imperiya davri fotosuratlari o'ziga xos "ilmiy izlanish" vositasi sifatida xizmat qilgan. Xususan, uning yordamida mahalliy aholi tasniflangan, irqiy, milliy, diniy ijtimoiy va kasbiy farqlar ajratib ko'rsatilgan va ma'lum tartibda joylashtirilgan. Insonlar obrazi mahalliy kontekstdan yulib olingan hamda millatlar yoki qandaydir boshqa ijtimoiy guruhlarning tipajiga aylantirilgan.

Bunday tasnif imperiyaga bo'ysundirilgan chekka o'lkani o'rganish, o'zlashtirish imkonini bergan va albatta, uni bo'ysundirish maqsadiga xizmat qilgan [6, 121-b.]. Bunga misol tariqasida F.Orde tomonidan 1870 yilda marg'ilonlik boy xonadonning ayollar qismi tushirilgan suratni keltirish mumkin.

1920-40 yillarda "Pravda Vostoka" gazetasining suratkashi bo'lgan M.Penson tomonidan tushirilgan oilaviy fotosuratda esa butunlay boshqacha manzaraning guvohi bo'lamiz. Quyidagi keltirilgan fotosuratda sovet davri mafkurasi – "yangi dunyo" qurish, tomoshabin diqqatini birinchi navbatda uning yangi, ilg'or jihatlari va timsollariga jalb etish maqsad qilingan. Sovet davri suratlarida ham oriyentalizm saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularda milliy madaniyatlarni madh etish, ularni zamonaviy sovet jamiyati obrazi bilan uyg'unlashtirishga intilish kuzatiladi.



Semiotik talqinda fotosuratdagi obrazga ma'no yashiringan madaniy belgi yoki belgilar tizimi sifatida qaraladi. Semiotika – axborot, ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o'rganadigan fan sohasi.

Suratlarda aks etgan belgilar murakkab iqtisodiy, madaniy yoki psixologik ma'lumotlarni aks ettirishi mumkin. Masalan, oila yashayotgan uy va hovlining holati, unda mavjud texnika kabi belgilar oilaning iqtisodiy holati va turmush darajasi haqida ma'lumot beradi. Uyga, xonaga pardozi berilganligi, uning jihozlanganligi, xona gullari yoki bog'ning mavjudligi kabi belgilar esa madaniy va psixologik ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Strukturaviy yondashuvda fotosuratlariga tizim sifatida qarab, uni tashkil qiluvchi komponentlar o'rtasida o'zaro bog'lanish va munosabatlar tahlil qilinadi. Bunda suratlarda aks etgan inson faoliyati, ijtimoiy qoidalar, me'yorlar, qadriyatlar, g'oyalar, hayotiy imkoniyatlar nazarda tutiladi. Masalan, fotosuratdagi oila a'zolarining joylashishiga qarab, unda hukm surgan munosabatlar haqida yoki suratda aks etgan kitoblarga to'la javon orqali oila a'zolarining o'qimishlilik xususida xulosa chiqarish mumkin. Uy-joyning turi (kamtarona yoki hashamatli), yashash hududining tashkil etilishi, maishiy texnika, transport vositalari (avtomobilning ko'rinishi va markasi) – oila moddiy ahvolidan ko'zga ko'rinarli belgilaridir.

Diskurs talqinda fotografik obraz kim uchun, qanday auditoriya uchun mo'ljallangani hamda uning qanday qabul qilinganligi aniqlanadi. "Diskurs" atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, muhokama qilmoq, muloqot o'rnatmoq degan ma'noni bildiradi [1, 236-b.]. Har bir diskurs ijtimoiy olamni his etishning o'z usulini aniqlab beradi. Vizual diskurs – diskursning alohida shakli bo'lib, fotosuratda aks etgan obrazlar aniqlandigan murakkab interfaol jarayondir. Diskursiv talqin fotosurat kim uchun mo'ljallanganligini va adresat "ko'rish amaliyoti" orqali tasvirning ma'nosini shakllantirishda qanday ishtirok etishini aniqlashga intiladi.

Tinglovchi nutqni eshitib, o'zi yod olgan belgilar orqali uni tushunganidek, fotosuratni qabul qilish ham tomoshabinning "bilimi"ga bog'liq. Fotosuratning tomoshabin yoki tadqiqotchi tomonidan idrok etilishi va qabul qilinishi ma'lum darajada uning individual psixologik fazilatlariga bog'liq bo'lib, buni vizual sezgirlik deb atash mumkin. Fotosurat yosh, jins, bilim

darajasi, etnik, milliy va sinfiy mansublik, muhit va boshqa xususiyatlardan kelib chiqib, uni tomosha qilayotgan yoki tadqiq etayotganlar tomonidan turlicha qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, fotosuratlarining vizual tarixiy manba sifatidagi asosiy ahamiyati uning ma'lum lahzani qayd etish qobiliyatidir, bu esa o'z navbatida fakt, hodisa tasvirini o'z ichiga oladi yoki bir qator hodisalarni umumlashtirish hisoblanadi. Bu esa fotosuratlarini tarixchilar va boshqa soha vakillari tomonidan talqin etish uchun muhim manbaga aylantiradi. Xususan, oilaviy fotosuratlar shunchaki oilaviy tarixni emas, jamiyatda sodir bo'lgan ma'lum o'zgarishlarni aks ettiradi. Oila a'zolarining faoliyati, oila bilan bog'liq obyektlar, ular faoliyat ko'rsatgan tashkilot, korxona, muassasa, ular ishtirok etgan ma'lum tarixiy davrga xos marosim, gender masalalar, oiladagi iyerarxiya va h.k. – bularning barchasi muhim tarixiy bilimlar uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan fotosuratlar sotsiologlar, madaniyatshunoslar, tarixchilar va antropologlar uchun vizual manba sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шадманова С.Б., Юлдашев М.М. Тарихий тадқиқотларнинг методологияси ва замонавий усуллари. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – 319 б.
2. Анаркулов, С. (2022). Визуал антропологияда рақамли технологияларнинг ўрни. Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана. –2002. – № 1(01). – Б. 82–85. <https://doi.org/10.47689/vli01.13321>
3. Круткин В. Л. Антропологический смысл фотографий семейного альбома. // Журнал социологии и социальной антропологии. – 2005. – Т. 8, № 1. – С. 171-178.
4. Александров Е.В. Опыт рассмотрения теоретических и методологических проблем визуальной антропологии. – Москва: Пенаты, 2003. – 97 с.
5. Штомпка П. Визуальная социология. – М.: Логос, 2007. – 168 с.
6. Гавришина О. Империя света: фотография как визуальная практика эпохи «современности». – М.: Новое литературное обозрение, 2011. – 192 с.
7. Абашин С.Н. Власть и фотография: визуальная репрезентация в имперской рамке // Неприкосновенный запас. – 2012. – 4(84). – С. 120-138.

G'ARBIY TURK XOQONLIGI DAVRIDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O'ZIGA XOS JIXATLARI

Ne'matov Rustam Abduvaid o'g'li
Guliston davlat universiteti "Tarix" kafedrası o'qituvchisi
r.nematov@gmail.com

Abstract In this article, the history of socio-political and ethno-cultural processes in the Khorezm oasis in the early Middle Ages, particularly in the VI-VIII centuries, as well as the history of the Uzbek statehood, the Turkish khanate (552-744), known as a major kingdom in Central Asia and neighboring regions) and the researches carried out on the history of Khorezm, which is a part of it, are analyzed from a scientific point of view.

Key words: Khorezm oasis, geographical location, Ephtalian state, scientific research, V.V. Barthold, E. Shavann, S. Tolstov, "Shorabashat" culture, Dovan state.

Аннотация. В данной статье рассматривается история общественно-политических и этнокультурных процессов в Хорезмском оазисе в раннем средневековье, в частности в VI-VIII вв., а также история узбекской государственности, тюркского ханства (552-744 гг.), известное как крупное царство в Средней Азии и сопредельных регионах) и проведенные исследования по истории Хорезма, входящего в его состав, анализируются с научной точки зрения.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, географическое положение, Эфталтия, научные исследования, В.В. Бартольд, Э.Шаванн, С.Толстов, «шорабашатская» культура, государство Дован.

AXBOROT VA TASHVIQOT URUSHIDAGI SIYOSIY MEXANIZMLARI Bahodir Mahmudboev	1780
GENDER MUNOSABATLARI O'ZIGA HOS JIHATLARI G'ARB NIGOHIDA Mahmudboeva Dilnoza.....	1782
GENEOLOGIYA VA FANLARARO YONDASHUV Xolbayeva Nargiza Ibadullayevna	1784
TARIXIY TADQIQOTLARDA FANLARARO YONDASHUV: VIZUAL ATROPOLOGIYA (OILAVIY FOTOSURATLAR MISOLIDA) Qodirova Lutfiya Batirovna	1786
G'ARBIY TURK XOQONLIGI DAVRIDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O'ZIGA XOS JIXATLARI Ne'matov Rustam Abduvaid o'g'li	1790
USTRUSHONA XALQARO MADANIY ALOQALARNING MINTAQA TSIVILIZATSIYASI RIVOJIDA TUTGAN AHAMIYATI Abduraimov Dilshod	1793
BONISTIKA MAXSUS TARIX SOHASI SIFATIDA Karshibaeva Shoira.....	1795
“БОБУРНОМА” АСАРИ МАХСУС ТАРИХ ФАНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА МУХИМ МАНБА Сангирова Дилорам Хужамкуловна	1798
“SHAJARAI TURK” ASARI TURKIYLAR TARIXINI YORITUVCHI MANBA Rizayev Xudoyberdi Farhod o'g'li	1802
BOLO HOVUZ MASJIDINING TA'MIROTI (XX asrning 20-80-yillarida) Abdullaeva Dिल्фуза Abdujalilovna.....	1805
ПЕРВЫЙ ТАЛАНТ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ М. Байэшанов	1808
ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРАВДА И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ВЫМЫСЕЛ В ПОВЕСТИ «БИКЕЙ И МАВЛЯНА» В.И.ДАЛЯ М.БАЙЭШАНОВ	1812
MOTURIDIYA KALOM MAKTABI VA UNING BAHS MAVZULARI Xolmo'minov Ja'far Muhammadiyevich., Mirzakulov Nurbek Nuriddinovich	1823
TURISTIK KLASSTERLARNI Yaratish VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI Jumaqulov Zamir Islamovich., Madaminov Anvar Mamayusupovich	1830

V TURKIY XALQLAR MADANIY VA MANAVIY MEROSIGA INTERDISIPLINAR YONDASHUV

YOSH MIGRANTLAR BILAN IJTIMOIIY ISH J.B.Jabborov, S.K.Mamatqulova	1835
IJTIMOIIYLASHUV HAMDA MA'NAVIY MAKONLARDA MILLIY G'OYA VA MAFKURALARNING TARIXIY AHAMIYATI G'.Amanov.....	1838
GLOBALASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI Kurbanov Kaxramon Atabulayevich	1841
HUQUQIY REALLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MA'NAVIY-AHLOQIY VA IJTIMOIIY MEXANIZMLARI Botirov Muzaffar Shodmonovich.....	1844
MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA VA UNING TA'SIRCHAN OMILLARI Kenjayev Sh. Ped.f.b.f.d(PhD), dotsent	1847
BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA OILANING O'RNI Suvonqulov Husan Toirovich ...	1850
JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA Xolnazarova Dildora Mamatmuratovna, Boboev Asror Xasan o'g'li	1852
KUBROVIYA TA'LIMOTIDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI Sh.Tangirberdiev, A.Boboev	1855
AJDODLAR MEROSIGA DAXLDORLIK TUYG'USI ASOSIDA INTERDISTSIPLINAR YONDASHUV Dushayev Akbarjon Janikulovich	1861
UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARINI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI Ravshanbek Mahmudov	1865

VI QISHLOQ XO'JALIGI FANLARINI SIFATLI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR